ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

"TILSHUNOSLIK" VA "LINGVISTIKA" SO'ZLARI BILAN NOMLANGAN LUG'ATLARNING YO'NALISHLARGA QARAB GURUHLANISHI

Yuldashova A.A.
O'zMU, Xorijiy filologiya fakulteti Nemis filologiyasi kafedrasi, o'qituvchi

ГРУППИРОВКА СЛОВАРЕЙ, НАЗВАННЫХ ТЕРМИНАМИ «ЯЗЫКОЗНАНИЕ» И «ЛИНГВИСТИКА», ПО НАПРАВЛЕНИЯМ

Юлдашова А.А.
УзНУ, факультет зарубежной филологии Кафедра германской филологии, преподаватель

CLASSIFICATION OF DICTIONARIES TITLED WITH "LINGUISTICS" ACCORDING TO THEIR ORIENTATIONS

Yuldashova A.A.
Uzbekistan National University, Faculty of Foreign Philology
Department of German Philology, Lecturer

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis tilida yaratilgan tilshunoslik terminlari lug'atlarining ularning nomlanishiga qarab yo'nalish guruhlarga ajratilganligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, lingvistika, tanlab olingan auditoriya(selektives Angebot), universal auditoriya (universelles Angebot), mavzuga oid(themenzentriert), biror jihatga oid(aspektorientiert).

Аннотация

В данной статье рассматривается классификация словарей лингвистических терминов, созданных на немецком языке, на основе особенностей их наименования.

Ключевые слова: языкознание, лингвистика, целевая аудитория (selektives Angebot), универсальная аудитория (universelles Angebot), тематическая направленность (themenzentriert), аспектуальная направленность (aspektorientiert).

Abstract


This article discusses the classification of German-language dictionaries of linguistic terminology based on the characteristics of their titles.

Keywords: linguistics, language studies, targeted audience (selektives Angebot), universal audience (universelles Angebot), topic-centered (themenzentriert), aspect-oriented (aspektorientiert).

„Lug'at sarlavhasi va so'zboshi lemma ko'rsatkichlari sifatida" deb nomlangan oldingi maqolamizda nemis tilida yaratilgan tilshunoslik terminlariga oid yaratilgan lug'atlarning sarlavhasi va so'zboshi ushbu lug'atlarning tarkibi to'g'risida foydalanuvchida tasavvur paydo qilishi haqida so'z yuritilgandi. Ushbu ishda uning mantiqiy davomi sifatida „ Tilshunoslik" va „Lingvistika" so'zlari bilan nomlangan lug'atlarning qanday guruhlanganligi ko'rib chiqiladi. Odatda leksikograflar o'z izlanishlari mavzusini ifodalash uchun xalqaro atama bo'lgan „lingvistika" so'zini, yoki nemischa nomlanish bo'lgan „Sprachwissenschaft" („tilshunoslik") atamasini ishlatadilar [1,193]. Tilshunoslik terminlariga oid izohli lug'atlarning muqaddimasi va nomidan kelib chiqib olingan barcha ma'lumotlar dastlabki bosqichda umumlashtiriladigan bo'lsa, ularning nomlanishi asosida quyidagicha guruhlanishi mumkin (1-chizma)[1,199].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

1-chizma. Tegishli terminologik lug‘atlarning faqat ularning nomlanish shakliga qarab guruhlanishi:



Chizmada ko’rsatilganidek, terminologik lug‘atlarning asosan ikki turi mavjud:

a) Sohaga oid nomlanganlar va

b) Sohaga oid nomga ega bo’lmaganlar.

(a) guruhga, ya’ni nomidan qaysi soha ko’rib chiqilayotgani aniqlanadigan lug’atlarga quyidagilar kiradi:

- Lang (1967): *Terminologie der generativen Grammatik* (Lang, 1967: Generativ grammatika terminologiyasi;
- Ludewig (1969): Lexikon der *deutschen Sprachlehre* (Lyudevig,1969: Nemis tili o’qitish bo’yicha leksikon);
- Bohusch (1972): Lexikon der *grammatischen* Terminologie (Bohush (1972) Grammatik terminlar leksikoni);

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

- Spiewok u.a. (1976): Wörterbuch *grammatischer* Termini (Shpiyvok va boshqalar (1976): Grammatik terminlar lug'ati;
- Spiewok (1977): Wörterbuch *stilistischer* Termini (Shpiyvok, 1977: Uslubiy terminlar lug'ati;
- Bräuer/Bartels (1979): Wörterbuch *lexikologischer* Termini (Broyer/Bartels, 1979: leksikologik terminlar lug'ati.

Bunga qarama-qarshi ravishda (b) guruhdagi lug'atlar o'z nomi orqali muayyan sohani aniq ko'rsatmaydi. Ularning nomida umumiy ilmiy soha tilga olinadi va bu soha yoki *Sprachwissenschaft* (b.1) ya'ni „tilshunoslik", yoki *Linguistik* (b.2) ya'ni „lingvistika" deb ataladi.

Quyidagi terminologik lug'atlar (yoki unga oid sifat „*sprachwissenschaftlich*" "tilshunoslikka oid") sarlavhasida *Sprachwissenschaft* (tilshunoslik) atamasini o'z ichiga oladi, biroq bu joyda ularning mazmuni haqida aniqroq ma'lumot berilmaydi(b.1):

- Knobloch (1961va key.yy.): *Sprachwissenschaftliches* Wörterbuch (Knoblox, 1961 va keyingi nashrlar): Tilshunoslikka oid lug'at;
- Conrad (1975): Kleines Wörterbuch *sprachwissenschaftlicher* Termini (Konrad, 1975: Tilshunoslik terminlari bo'yicha kichik lug'at;
- Bußmann (1983): Lexikon der *Sprachwissenschaft* (Bussman, 1983: Tilshunoslik leksikoni);
- Conrad (1985): Lexikon *sprachwissenschaftlicher* Termini (Tilshunoslik terminlari leksikoni).

Qolgan barcha terminologik lug'atlar nomida „lingvistika" (yoki unga oid sifat „lingvistik") atamasidan foydalanilgan (b.2). Bu guruh ichida ikkita lug'atda sarlavhada qo'shimcha aniqlovchi kiritilgan (b.2a):

- Welte (1974): *Moderne* Linguistik: Terminologie/Bibliographie (Welte,1974: Zamonaviy lingvistika: terminologiya/bibliografiya);
- Abraham (1974): Terminologie zur *neueren* Linguistik (Abraam (1974): Yangi lingvistika terminologiyasi.

Bulardan boshqa lug'atlarda bunday aniqlovchi kiritish holati uchramaydi(b.2b), ya'ni bu lug'atlarning nomi orqali, xuddi (b.1) guruhidagi "tilshunoslik" atamasini ishlatgan lug'atlardagidek, o'quvchi lug'atning mazmuni haqida aniq ma'lumot ololmaydi:

- Helbig (1969): Kleines Wörterbuch *linguistischer* Termini (Helbig (1969): Lingvistik terminlar bo'yicha kichik lug'at;
- Ulrich (1972): Wörterbuch - *Linguistische* Grundbegriffe (Ulrich (1972): Lug'at – lingvistik asosiy tushunchalar;
- Heupel (1973): Taschenwörterbuch der *Linguistik* (Heupel (1973): Lingvistika bo'yicha cho'ntak lug'ati;
- Lewandowski (1973/75): *Linguistisches* Wörterbuch (Levandovski,1973/75: Lingvistik lug'at;
- Stammerjohann (1975): Handbuch der *Linguistik* (Shtammeryohan,1975: Lingvistika qo'llanmasi.

Yuqorida tasvirlangan guruhlashda 2-chizmada qolip bilan ajratib ko'rsatilgan to'qqizta lug'at – ya'ni Knoblox, Konrad, Bussmann, Conrad, Helbig, Ulrich, Heupel, Levandovski va Shtammeryohann hamda ularning barcha keyingi nashrlari o'zgarishsiz qoldi. Chunki ularning hech biri nomi orqali o'zining asosiy yo'nalishlarini aniqlab bermaydi.Yangilanishlar, kengaytmalar yoki asl so'z zaxirasining to'ldirilishi haqidagi ma'lumotlar, sarlavhadan tushunib bo'lmaydigan narsalar, kirish so'zida keltirilgan izohlar orqali aniqlashtiriladi, shu sababli ikkinchi bosqichda har bir nashriyotchi tomonidan belgilangan dasturiy mezonlar asosida yuqorida (b.1) va (b.2b) guruhlarga kiritilgan

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

lug‘atlarni quyidagicha aniqlashtirish mumkin (2-chizma)[1,203]. Tilshunoslik/lingvistik terminologiya lug‘atlarining barchasiga xos jihat shuki, ularning sarlavhasida soha ko‘rsatkichi sifatida yoki “Linguistik” yoki unga oid “lingvistik” sifati, “Sprachwissenschaft” da, yoki unga oid “sprachwissenschaftlich” sifati, atamasi ishlatilgan.Farqlar esa, faqatgina bu ikki atamaning qanday tushunilishidan kelib chiqadi, chunki “Linguistik” so‘zi “Sprachwissenschaft” bilan sinonim tarzda ham, tor ma’nodagi alohida tur sifatida ham qaralishi mumkin. (A) “Linguistik” atamasini tor ma’noda – ya’ni faqat zamonaviy tilshunoslik shakli sifatida tushunish va shunga muvofiq e’tiborni zamonaviy ilmiy terminologiyaga qaratish imkoniyatidan Heupel Taschenwörterbuch der Linguistik lug’atida foydalangan [2,5].


Boshqa barcha leksikograflar esa "Linguistik" va "Sprachwissenschaft" ya’ni, tilshunoslik atamalarini o‘zaro sinonim variantlar sifatida tushunadilar va shu orqali zamonaviy hamda an’anaviy so‘z boyligini e’tiborga oladilar (B). Farq esa ularning ushbu umumiy so‘z boylikka bo‘lgan yondashuvlaridadir. Ular bu so’z boylikka ya'ni terminologik zaxiraga qanday murojaat qilishlarida turlicha yo‘l tutadilar. Ayrimlari ilgari nomi tilga olingan bo‘laklarning taqdimoti bilan cheklanadilar (B1), boshqalari esa bu zaxirani universalligi bilan hujjatlashtirishga harakat qilishgan (B2).

Ushbu lug’atlarni guruhlarga ajratilsa (B1) selektiv, ya’ni, tanlab olingan tarzda tuzilgan ikki lug’atni keltirish mumkin. Ulardan biri, ya’ni (B1.a) Shtammeryohanning *Handbuch der Linguistik* lug’ati hisoblanadi [1,202]. Helbigning *Kleines Wörterbuch linguistischer Termini* "mavzuga yo‘naltirilgan" (themenzentrierte) termin tanlovi sifatida tavsiflanishi mumkin(B1.b), chunki terminlarning tanlanishida faqat ularning ma’lum sohalarga mansubligi hal qiluvchi mezon bo’lgan. "biror jihatga yo‘naltirilgan" (aspektorientierte) termin tanlovida leksikograf alohida fan sohalaridan emas, balki materiali yig‘ishda u davrdagi o‘quvchilar uchun yangi yoki hali uncha tanilmagan terminlarga urg‘u bergan. Qolgan olti lug‘at esa tilshunoslik terminologiyasining to‘liq ko‘lamini maqsad qilib olgan va shunga mos ravishda universal taklifni taqdim etadi (B2), ular orasida sarlavhasidan maksimal darajada to’laqonlikka da’vo qiluvchi Knobloxning *Sprachwissenschaftliches Wörterbuch* lug’ati ham borki, u lekin hali -hanuzgacha to’liq yakunlanmaganligi kamchiligi bilan ajralib turadi (B2.a). B2.b.dagi lug’at foydalanishga to‘liq yaroqli va oradan vaqt o‘tib bir necha nashrda tarqatilgan lug‘atlar esa qolgan beshta terminologik lug‘atlardir. Bu lug‘atlar o‘z mo‘ljallangan foydalanuvchilar doirasiga qarab turlicha taqdim etiladi, bu ba’zan torroq (B2.b.1), ba’zan esa kengroq doirani o’z ichiga qamrab oladi (B2.b.2). B2.b.1. da tilshunoslik terminologiyasini o‘rganmoqchi bo‘lgan maktab yoki oliygohdagi yangi o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan, amaliyotdan ilhomlangan va amaliyot uchun yozilgan kichik risola-Ulrixning *Wörterbuch – Linguistische Grundbegriffe* lug’ati tasvirlangan. B2.b.2. da tasvirlangan to‘rtta lug‘at esa juda keng foydalanuvchilar doirasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular orasida o‘qituvchilar, o‘rganuvchilar, hatto olimlar ham bor. Bu lug‘atlar orasidagi farq esa har birining hujjatlashtirgan ilmiy holati, ya’ni tilshunoslikdagi tadqiqot darajasi bilan bog‘liq. Chunki bu asarlarning hammasi ham birinchi nashridan so‘ng yangilanmagan yoki to‘ldirilmagan. 1970-yillar o‘rtalarida yaratilgan Konradning 1975 va 1981-yillarda nashr qilingan *Kleines Wörterbuch sprachwissenschaftlicher Termini* lug’ati bir necha bor nashr qilingan,lekin qayta ko‘rib chiqilmagan yoki zamonaviy bo‘limlar bilan to‘ldirilmagan [1,202].Faqat oradan o‘n yil o‘tib, *Lexikon sprachwissenschaftlicher Termini* bevosita davomi sifatida taqdim etilgan. 1990-yillar boshida Levandovskiyning *Linguistisches Wörterbuch* va Bussmanning *Lexikon der Sprachwissenschaft* lug’atlari zamon talabiga moslashtirilib yangilangan. Bu lug‘atlar so‘nggi tahriridan buyon o’n yillardan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hozirgacha xuddi shu shaklda foydalanilmoqda.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

Tilshunoslik terminologiyasiga oid lug'atlar (2-chizma)



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kreuder H.-D.Metasprachliche Lexikographie.Max Niemeyer Verlag,2003.-S 271.
2. Helbig G. Kleines Wörterbuch linguistischer Termini. Vorwort, 1969.-S 21.
3. Lewandowski Th. Linguistisches Wörterbuch. 3 Bde.-Heidelberg. -S 415.